



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHI RAISING F A R M O Y I S H I

2025-yil 17-oktabr

4-11-163-KF/25

Farg‘ona tumani

Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 14-sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi
Qonunining 17-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

- I. Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 14-sessiyasini 2025-yil 27-oktabr kuni soat 10.00ga chaqirilsin.
- II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrda
“Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va
tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar
yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman hokimi X.Inomov)
(Mas’ul: “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar
bo‘yicha” doimiy komissiyasi)
 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni
rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-
quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-
tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarorining 2025-
yilning 3-choragi davomida tumandagi ijrosi to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
O.Abduraximov)

(Mas'ul: "Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

3. 2025-yil 3-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida;
(Hisobot beruvchi: Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O.Abduraximov)

(Mas'ul: "Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori ijrosini ta'minlash borasida 2025-yilning 3-choragi davomida Farg'ona tumanida olib borilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori O.Toshpulatovning axboroti to'g'risida;
(Axborot beruvchi: tuman prokurori, adliya maslahatchisi O.Toshpulatov)

(Mas'ul: "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

5. 2025-yilning 3-choragi davomida tumanda huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan Farg'ona tumani IIB boshlig'i M.A.Qunduzovning hisoboti to'g'risida;
(Hisobot beruvchi: tuman IIB boshlig'i M.Qunduzov)

(Mas'ul: "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-son Farmoni ijrosini ta'minlash borasida 2025-yilning 3-choragi davomida Farg'ona tumanida olib borilgan ishlar to'g'risida;

(Axborot beruvchi: tuman Adliya bo'limi boshlig'i S.Maxkamov)

(Mas'ul: "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

7. O'zLiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli Qarorining tumandagi ijrosi haqida;

(Hisobot beruvchi: Farg'ona tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i X.Mo'minov)

(Mas'ul: "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

8. Farg'ona tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish to'g'risida;

(Hisobot beruvchi: Farg'ona tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i X.Mo'minov)

(Mas'ul: "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha" doimiy komissiyasi)

- III. Tuman Kengashiga saylangan deputatlar, masalalarga daxldor korxona va tashkilot rahbarlari yig'ilish talabiga **muvofig kiyingan holda** sessiya boshlanishidan yarim soat avval kelishi va sessiya tugaguniga qadar sessiyani tark etmasliklari haqida ogohlantirilsin.
- IV. Sessiyaga **tuman hokimi o'rinbosari, masalalarga daxldor korxona va tashkilot rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda bloggerlar** taklif etish tuman hokimligining tashkiliy kadrlar bo'limi (Xo'janazarov) zimmasiga yuklatilsin.
- V. Ushbu qaror Farg'ona tuman hokimligining rasmiy veb sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish hamda tuman Kengashining navbatdagi 14-sessiyasini OAVlarida jonli efirda yoritish tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (A.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH